



ANTI-K DAVR MANBALARIDA SALAVKIYLAR DAVLATI

O. Eshmamatova

Z. Eshimova

ShDPI tarix yoʻnalishi 1-kurs talabalari

Abstract: This article talks about the establishment and development of the Seleucid state, as well as the social and economic development of the Seleucid state, which are continuously studied by historians.

Key words: diadox, Bactrian, stratonik, diocese, soter, diocese.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Salavkiylar davlati tashkil topishi va rivojlanishi hamda Salavkiylar davlatining ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishini hisobga olib, tarixchi olimlar tomonidan davomli ravishda oʻrganib kelinmoqda aynan shular haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: diadox, baktriyani, stratonik, eparxiya, soter, eparxiya.

Аннотация: В данной статье говорится о становлении и развитии государства Селевкидов, а также о социально-экономическом развитии государства Селевкидов, которые постоянно изучаются историками.

Ключевые слова: диадокс, бактрийцы, стратоны, епархия, сотер, епархия.

Miloddan avvalgi IV -III asrlar har bir tarixchi uchun shubhasiz qiziqarli davr hisoblanadi. Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng uning ulkan imperyasi parchalanib ketadi va bu imperiyaning bir qismini Salavka o'z davlatchiligiga qo'shib oladi va Salavkiylar davlatiga asos soladi. Salavkiylar davlati - Yaqin va O'rta Sharkdagi yirik davlat (mil. av. 312— 64). Aleksandr tuzgan saltanat tanazzulga uchragach paydo bo'lgan. Salavk I Nikator (yun. Seleukos Nikator — "Muzaffar") (mil. av. 358/ 354—281/280)—



Salavkiylar davlati va sulolasi asoschisi. Makedoniyalik mashhur Antioxning o'g'li. 326-yil Aleksandrning Hindistonga qilgan yurishlarida mashhur sarkarda sifatida nom chiqardi. Aleksandr o'lgandan keyin uning safdoshlari (diadoxlar) bilan taxt uchun shafkatsiz kurash olib bordi. Miloddan avvalgi 321-yil Bobil satrapligini boshqarish unga topshirilgan. Miloddan avvalgi 312-yilga kelib ("salavkiylar erasi"ning boshlanishi) bu yerda mustahkam o'rnatilib olgach, Midiya, Suziana va Forsiya (Persida)ni, keyinchalik Baqtriya ham o'z mulkiga qo'shib oldi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Taxminan miloddan avvalgi 305- yilda Hindistonga muvaffaqiyatli yurish qildi, lekin G'arbdan tashvishli xabar olgandan so'ng, hind shohi Chandragupta bilan 500 fil evaziga sulh tuzdi va egallab olgan hududni qaytarib berdi. Ibrdagi jang (mil. av. 301-yil) natijasida (diadoxlar o'rtasida yer bo'linganda) Mesopotamiya va Suriyani oldi. Mil. avv 281-yil Lisimaxni tormor qilib Kichik Osiyoning deyarli hamma hududini egallab oldi. Poytaxtlari — Dajla daryosi bo'yidagi Salavkiya (300-y. gacha), 300-y. dan — Oront daryosi bo'yidagi Antioxiya bo'lgan.(1)

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Ushbu maqolada Abdujabbor Kabirovning "Qadimgi sharq tarixi" kitobidan foydalanildi. Aynan ushbu kitobda Salavkiylar davlati haqida ma'lumot keltirilib o'tilgan. Kabirovning kitobida Salavkiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishga qaratilgan. A.S. Sagdullayevning "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi" kitobida Salavkiylarning Ahamoniylarga qarshi kurashi Doru, Kir haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mil. avv. 250-yilda Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqishi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. R. Rajabovning "Qadimgi dunyo tarixi" kitobida davlatning nomi hukmronlik qilgan sulola nomidan kelib chiqqanligi haqida aytilgan.

Salavk I Makedoniyaning podshosi bo'lish maqsadida Frakiya va Makedoniya tomon yurish boshlagan. Lekin, Ptolemey Lagning o'g'li Ptolemey Keravn tomonidan o'ldirilgan. O'rta Osiyoning bir qancha muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealari Salavk I, ayniqsa, Antiox I hukmronligi bilan bog'liq. Bu davrda Baqtriya hayotida dastlabki tangalar — oltin,



kumush, mis draxma va tetradraxmalar zarb qilina boshlanadi. Salavkiylar davriga oid tangalar Termiz, Taxti Sangin, Denov, Kampirtepa, Afrosiyobdan topilgan. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo ushbu davlatning eng muhim qismi bo'lib, harbiystrategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi.[1] O'rta Osiyo bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida shaharlar va qishloklar qurdirilgani bejiz emas. Ma'muriy boshqaruv jihatdan davlat satrapiyalarga (manbalar 20—30 ta dan 72 tagacha satrapiya bo'lganligi haqida ma'lumot beradi) va nisbatan kichik hududiy birlashmalar — eparxiya, gipparxiya, tonarxiyalarga bo'lingan. Yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan yunon zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar.(2)

Muhokama va natijalar:Salavkiylar hokimiyati, avvalo, O'rta Osiyodagi harbiy manzilgohlarda joylashgan harbiy kuchlarga tayanar edi. Mil av. 3-asrga ning o'rtalariga kelib Salavkiylar davlatida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketadi.Biroq salavkiylar davlatining zaiflashgandan foydalanib, Parfiya tezda o'z mustaqilligini tiklab olgan.Antiox I davridan keyin er. avv. III asr o'rtalarida Baqtriya, So'g'diyona va Parfiya ajralib chiqdilar, Vifiniya, Paflagoniya, Kappadokiya va Galatiya kabi davlatlar paydo bo'ldi, Antiox III bu davlatlarni bo'ysundirish uchun er. avv. 212-205-yillarda sharqqa yurish qildi. Yurish davomida xarajatlarni qoplash uchun Antiox III Ekbatanadagi Anaxita ibodatxonasini taladi. Yurish natijasida Parfiya qayta bo'ysundirildi, Yunon-Baqtriya uning shaharlarini ikki yil natijasiz qamal qilish bilan rasman Salavkiylar hokimiyatini tan oldi. [2]Antiox qo'shinlari Hindikush tog'laridan o'tib Hindiston yerlariga bostirib kirdi va mahalliy hokim bilan shartnoma tuzilib Antiox Hind jangovar fillariga ega bo'ldi.Antiox III ning o'g'illaridan biri Antiox IV (Er. avv. 175-yilda) shijoatli hukmdor bo'lib, davlat hokimiyatini bir qadar mustahkamlashga erishdi. Uning boshqaruvi davrida mamlakatda podsho san'at va madaniyatga homiylik qildi.(3)

Shuhratparast Antiox IV Salavkiylar davlatining o'tmishdagi kuch-qudratini tiklashga urindi. Mamlakat ichida bir qadar ijtimoiy siyosiy barqarorlikni vujudga keltirib, uning hududini kengaytirishga harakat qildi. Antiox IV Mistrni bosib olish uchun kuchli qo'shin



bilan yurish boshladi. Yo'lda uni Rimning Misrdagi elchisi Gay Popiliy Lena to'xtatadi. Aytishlaricha Salavkiylardan ko'ra qudratli bo'lgan Rim elchisi Antiox IV o'tirgan joyni atrofida doira chizib, Rimning talabi bajarilmaguncha (Misrga yurishni to'xtatish) Antiox IVni doira ichidan chiqib ketishini taqiqladi. Natijada rimliklarning tazyiqi ostida Misr yurishi to'xtatiladi. Butun davlat inqirozga yuz tutib mil. avvalgi 64 yilda faqat hozirgi Suriya hududidan iborat bo'lib qoldi va o'sha yili Rim provinsiyasiga aylantirildi. O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri, yunonmakedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tiklanishi hamda baqtriyaliklar, sug'diylar, parfiyaliklarning bosqinchilarga qarshi birlashuv davri bo'lib qoldi.(1)

Xulosa: Salavkiylar davlatlari sharq tarixining muhim bosqichlaridan birini tashkil etdi. Bu davrda o'lkamiz xalqlarining davlatchilik, xalq xo'jaligi va turmush tarzi moddiy va manaviy kelib chiqishi va qudrati strategik muhimligini ko'rsatadi. Salavkiylar davlati Eron tarixida muhim davrni tashkil etdi. Ular diniy, siyosiy va madaniy jihatdan o'zgarishlar kiritishgan, ammo uzoq muddatli barqarorlikni saqlab qololmadilar. Salavkiylar sulolasi Eronning siyosiy va diniy xarakterini shakllantirgan bo'lsa-da, ularning hukmronligi vaqt o'tishi bilan zaiflashdi va oxir-oqiba davlatning qulashi bilan tugadi.

Manbalar:

1. A.S.Sagdullayev “O'zbekistonda davlat boshqaruvi” Toshkent-2020
1. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent-2009.
2. Abdujabbor Kabirov “ Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016
3. Fozila Sulaymonova “Sharq va G'arb” 1998
4. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
5. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
8. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
9. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
10. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
11. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
12. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.